

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

1-SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
1-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович Дунёдаги демографик ривожланиш ҳолати ва истиқболлари.....	4
Xudoykulov Sadirdin Karimovich, Abdurahimov Sarvar Nasrilloevich Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush tarzini yaxshilash — farovon hayot demakdir.....	18
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Musayev Bekzod Murodovich Mirzacho'l iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari.....	29
Мамадалиева Хафиза Холдаровна Демографическое развитие и его влияние на экономический рост страны: теоретический и эмпирический анализ.....	38
Abdullayev Asliddin Jumaydullayevich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich Enhancing educational effectiveness through the application of innovative communication marketing strategies in higher education institutions.....	49
Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich The role of industrial greening in ensuring economic stability in our country.....	63
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Omanova Kamola Botir qizi Jizzax viloyati qishloq aholi manzilgohlari joylanishining geografik xususiyatlari (turlari va shakllari).....	73
Shakarov Zafar Gafforovich Иш жойлари мониторинги амалга оширишнинг хорижий давлатлар тажрибалари.....	82
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich Leveraging marketing strategies to boost national economic competitiveness.....	91
Sherxolov Olimjon Iskandarovich, Musayev Bekzod Murodovich Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi.....	100
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari.....	107
Asqarova Muhabbat Ibraximovna Hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondoshuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish...	116
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich, Dustmurodov Diyorbek Xo'dayor o'g'li Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy strategiyani shakllantirish.....	125
Нуманова Мадина Латиф қизи Инсон капитали ва барқарор ўсиш: Ўзбекистон ҳудудларининг рақобатбардошлигини оширишдаги роли.....	131
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li Yaponiyada uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati va uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari.....	143
Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna Ta'limda modulli o'qitish texnologiyasi.....	151
Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi Kompyuter jinoyatlari va kiberxavfsizlik: raqamli jamiyatda huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar.....	156
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi Mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish choralari.....	165
Yunusova Ug'ilo'yl Bolqiboy qizi Ovqatlanish korxonalarida ofitsantlar xizmat sifatini oshirish.....	172

MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Hududiy
ta'lim muassasalari va markazlar bilan ishlash
bo'limi bosh mutaxassisi*

E-mail: a.makhmudov@tsue.uz

ORCID: 0000-0003-4933-1233

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda “Hududlarni kompleks rivojlantirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 32 foizga yetkazish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida suvni ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqish miqdorini 10,5 foizga kamaytirish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish” kabi masalalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rib chiqilgan. “2023-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18,1 mln. so'mga yetdi. Suv tejovchi texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida 2 milliard kub metr suvni tejash imkoni yaratildi”. Barqaror rivojlanishning maqsadli samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish va belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish va amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari doirasida chuqur izlanishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqa iqtisodiyoti, klassik iqtisodchilar, mintaqaviy strategiyalar samaradorligi, boshqaruv tizimlarini optimallashtirish, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad.

УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Махмудов Аслиддин Сирожиддин угли

*Доктор философии по экономическим наукам, PhD
главного специалиста отдела по работе с региональными
образовательными учреждениями и центрами
Ташкентского государственного экономического университета*

Аннотация. В статье в качестве приоритетных направлений социально-экономического развития страны рассматриваются такие

вопросы, как «комплексное развитие регионов, увеличение доли технологичной продукции, производимой в промышленности, до 32 процентов, организация системы социальной защиты, полностью отвечающей потребностям населения и международным стандартам, повышение эффективности водопользования на 25 процентов в части экономии водных ресурсов и охраны окружающей среды, сокращение объемов выбросов загрязняющих веществ в атмосферу на 10,5 процента, создание благоприятных экологических условий для населения». «В 2023 году объем промышленного производства на душу населения достигнет 18,1 млн сумов. «Внедрение водосберегающих технологий позволило сэкономить 2 млрд кубометров воды». В рамках научных исследований проведены углубленные исследования по совершенствованию и внедрению механизмов, направленных на достижение целевых показателей эффективности устойчивого развития и реализацию поставленных задач.

Ключевые слова. Региональная экономика, классики экономики, эффективность региональных стратегий, оптимизация систем управления, валовой внутренний продукт, национальный доход.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS ECONOMIC FOUNDATIONS

Makhmudov Asliddin Sirojiddin ugli

Doctor of Philosophy in Economics, PhD

Chief Specialist of the Department for Work
with Regional Educational Institutions and Centers
of the Tashkent State University of Economics

Abstract. The article considers such issues as “comprehensive development of regions, increasing the share of technological products produced in industry to 32 percent, organizing a social protection system that fully meets the requirements of the population and international standards, increasing the efficiency of water use in terms of saving water resources and protecting the environment by 25 percent, reducing the amount of pollutants released into the atmosphere by 10.5 percent, and creating favorable environmental conditions for the population” as priority areas of the country’s socio-economic development. “In 2023, the volume of industrial production per capita reached 18.1 million soums. As a result of the introduction of water-saving technologies, it was possible to save 2 billion cubic meters of water.” In-depth research was conducted as part of scientific research to improve and implement mechanisms aimed at achieving target performance indicators of sustainable development and achieving the set tasks.

Keywords. *Regional economy, classical economists, effectiveness of regional strategies, optimization of management systems, gross domestic product, national income.*

Kirish. Barqaror rivojlanish g'oyalari dunyo maydonida yanada keng tarqalishi natijasida globallashtirish tushunchasi muqobil sifatida tan olinmoqda. Mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi pirovardida respublika iqtisodiyotining uzluksiz taraqqiyotini ta'minlab beradi. Shu o'rinda, mamlakat hududlarining iqtisodiy salohiyatidan, mavjud ichki resurslaridan oqilona foydalanishni ko'zlagan holda barqaror rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda "barqaror rivojlanish" bo'yicha ko'plab ta'riflar keltirilgan bo'lib, ularning aksariyati iqtisodiyotni rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik normalarga tayanishni nazarda tutadi. Ular ichida "Brundtland komissiyasi" ma'ruzasida keltirilgan ta'rif atama mohiyatini to'liqroq ochib beradi. Bunga ko'ra, barqaror rivojlanish bu shunday rivojlanishki, bugungi kun ehtiyojlarini qondirish hisobiga, kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini tahdid ostiga qo'ymaslik nazarda tutiladi. Barqaror rivojlanish tabiat va jamiyat uchun inklyuziv, barqaror va hayotiy kelajakni yaratish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot surati va yuzaga kelayotgan muammolar xalqaro darajada muvozanatlashgan va muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari, ularning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash masalalari ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Jumladan, xorijlik olimlardan – R. Gogonea, X.Liang, K. Malli, M. Milenkovich, S.Z. Rustamovich, M. Szabo, K. Chapple va boshqalarning ishlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqaviy strategiyalarning samaradorligini oshirish, ekologik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasida muvozanatni saqlash kabi ustuvor yo'nalishlar o'z aksini topgan. MDX davlatlari olimlaridan – T.V. Alferova, I.Buzko, Yu.A.Gajiyev, V.L. Kvint, L. Kuanova, I.A. Morozov, N.V. Paxomova, A.A.Urunov, A.A. Shalmuyevlarning tadqiqotlarida mintaqalarni barqaror rivojlantirishda innovatsion va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish, ekologik masalalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini hududiy dasturlarda qo'llash qo'llash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun mintaqaviy boshqaruv tizimlarini optimallashtirish masalalari o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, analiz va sintez, qiyosiy va omilli tahlil, iqtisodiy modellashtirish, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mintaqani barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish jarayonida mintaqaning mavjud iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish orqali islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga aniqlik kiritish mumkin bo'ladi. Bunda iqtisodiy salohiyat iqtisodiy kategoriyasining mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy qarashlarni tahlil qilish talab etiladi.

Iqtisodiy adabiyotda mintaqani barqaror rivojlantirishda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda iqtisodiy salohiyat kategoriyasining mazmun mohiyatini yoritish borasida ko'plab ilmiy qarashlar shakllangan.

O'zbekistonda mintaqalarni barqaror rivojlantirish iqtisodiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarorida o'z aksini topgan. Unda quyidagi vazifalar belgilangan:

Barqaror rivojlanish maqsadlarining global ko'rsatkichlari asosida MBRM ko'rsatkichlari tizimini doimiy yangilab borish va uning metodologiyasini shakllantirish; ko'rsatkichlarni to'plash bo'yicha vazifalarni Davlat statistika ishlari dasturiga kiritib borish, ko'rsatkichlarni doimiy asosda to'plash va MBRM veb-portalida (www.nsdg.stat.uz) e'lon qilib borish; har bir ko'rsatkich bo'yicha 2030-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasiga taqdim etish;

Barqaror rivojlanish maqsadlari global reytingini ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan reyting natijalari asosida ushbu prognoz ko'rsatkichlarni Muvofiqlashtiruvchi kengash tavsiyasiga ko'ra qayta ko'rib chiqish, zarur hollarda ularga asoslangan o'zgartirishlar kiritish;

xalqaro taqqoslama so'rovnomalarda ishtirok etish choralari ko'rish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari global reytingini ishlab chiquvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish; doimiy ravishda MBRM ko'rsatkichlarini to'plash va monitoringini yuritish orqali Muvofiqlashtiruvchi kengashga har yili dekabr oyida monitoring natijalariga ko'ra ma'lumotlarni kiritish;

oʻrta muddatli byudjetni shakllantirish, takomillashtirish va daromadlarni oʻzida qamrab olgan MBRMni moliyalashtirish milliy strategiyasi ishlab chiqilishini hamda ushbu strategiyani taʼminlash va joriy etish uchun zarur boʻlgan vositalar, shu jumladan, moliyalashtirishning doimiy monitoringi yuritilishini taʼminlash; moliyalashtirish milliy strategiyasining monitoringi natijalariga asosan Muvofiqlashtiruvchi kengashga hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligiga bu borada amalga oshirilgan ishlar hamda ularning natijalari boʻyicha har yarim yillikda hisobotlar va maʼlumotlarni taqdim etish;

MBRMni moliyalashtirishga qaratilgan va amalga oshirilayotgan choratadbirlarni doimiy monitoringini yuritish;

MBRMni moliyalashtirish manbalarini oshirish va qoʻshimcha mablagʻlarni yoʻnaltirish va jalb qilish boʻyicha tegishli takliflar ishlab chiqish va amalga oshirish; manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlar koʻmagida MBRMni davlat va xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish choralari ishlab chiqish hamda tatbiq etish.

Ekspert guruhlar va Idoralararo ishchi guruhning samarali faoliyatini tashkil etish, MBRMga erishishda sektorlar-aro muvofiqlashtirishni, uygʻunlashgan yondashuv va monitoringni taʼminlash;

Milliy maqsad va vazifalarning tarmoq, mintaq va maqsadli rivojlantirish dasturlari, strategiyalar va konsepsiyalarga kiritilishini taʼminlash;

Ekspert guruhlar va Idoralararo ishchi guruh bilan birgalikda vazirlik hamda idoralarga yuklangan har bir koʻrsatkich boʻyicha 2030-yilgacha boʻlgan maqsadli parametrlarni tasdiqlash; har bir maqsad boʻyicha masʼul vazirlik va idoralarning MBRMni amalga oshirish toʻgʻrisidagi hisobotlarini eshitish, erishilgan ijobiy natijalarga koʻra ragʻbatlantirish yoki yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar uchun jazo choralari koʻrish;

MBRMni moliyalashtirishga qaratilgan milliy siyosatni muvofiqlashtirish va doimiy nazoratni taʼminlash;

BMT va uning tashkilotlari bilan birgalikda parlamentlar, vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida yigʻilishlar tashkil qilish.

Fikrimizcha, mintaqani barqaror rivojlantirishda avvalo uning iqtisodiy salohiyati toʻgʻrisidagi tasavvurni shakllantirish amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodiy adabiyotda iqtisodiy salohiyat tushunchasining mohiyatini yoritishga qaratilgan

ayrim ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilgan holda, umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham iqtisodiy salohiyat tushunchasining mohiyatini tushuntirishga xarakat qilingan. Jumladan, A. Smit va T.R. Maltuslar o'z tadqiqotlarida mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasining mohiyatini tushuntirishda yer, mehnat va kapitalga asoslanadilar. Bunda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonlarining texniktexnologik jihatdan takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim xizmatlari orqali inson kapitalini investitsiyalash kabi omillarning inobatga olinmagan.

Shu sababli ayrim mintaqa iqtisodiy salohiyatini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarda ushbu tadqiqot natijalariga kamdan kam holatlardan e'tibor qaratiladi. Jumladan, yana bir klassik iqtisodiy maktab vakili hisoblangan D. Rikardo mintaqa iqtisodiy salohiyatini tushuntirishda yer, mehnat, kapital bilan birgalikda mintaqada joylashgan ishlab chiqarish korxonalari egaligidagi asbob-uskunalar va mahsulot ishlab chiqarishning texnologik rivojlanish darajasini ham inobatga olish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

D. Rikardo ilmiy tadqiqoti natijalariga o'xshash xulosalar U. Rostou tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda ham o'z aksini topgan. Uning fikricha, ishchi kuchi, kapital, resurslar va texnologiyalar mintaqa iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanib, ularni o'zaro birlashtirishning optimalligi mintaqa iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini anglatadi. Umumiy holda, U. Rostou tomonidan mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasiga nisbatan berilgan ta'rifda iqtisodiy o'sishni ta'minlash nuqtayi nazaridan yondashilgan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining texnik-texnologik jihatdan takomillashuvi mazkur jarayonda sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini tobora murakkablashtirish bilan birgalikda, mintaqa iqtisodiy salohiyatini tushunchasi mohiyatini tobora takomillashib borishiga olib keldi. Jumladan, Dj.M. Keyns tomonidan mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasi mohiyatini yoritishga investitsion jarayonlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiritib o'tilgan bo'lsa, Y.A. Shumpeter innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar ham mintaqa iqtisodiy salohiyatini tavsiflashda foydalanilishi zarur ekanligini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Mintaqalar iqtisodiy salohiyatini aniqlash va undan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti ekanligi o'z isbotini topgani sari, iqtisodchi olimlar tomonidan uning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan tadqiqotlarga

ustuvorlik qaratila boshlandi. Mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini tushuntirishda innovatsiyalar bilan bog'liq ko'rsatkichlarning ham inobatga olinishi keyingi tadqiqotlarda ta'lim xizmatlari ko'rsatish va inson kapitali bilan bog'liq bo'lgan omillarni ham inobatga olinishiga olib keldi.

Jumladan, G.S. Bekker mintaqalar iqtisodiy salohiyatini baholashda inson kapitali, uni investitsiyalash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni ham inobatga olish lozimligini isbotlagan. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasi mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlar ham tobora takomillashib bormoqda. Jumladan, L. Chunguang fikricha, mintaqa iqtisodiy salohiyati ma'lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mintaqaning resurs imkoniyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich hisoblansa, undan foydalanish samaradorligi mintaqaning global yoki milliy qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtiroki orqali baholanadi. Ushbu holat mamlakatlar milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarda "rivojlanish nuqtalari"ning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Bunda nisbiy ustunlik nazariyasiga asoslangan holda, iqtisodiy salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan mintaqalarni rivojlantirish orqali mamlakatlar milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga erishilayotganligiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan mintaqalar iqtisodiy salohiyati mohiyatini yoritishda global raqobatbardoshlik konsepsiyasidan ham foydalanilganligi ko'zga tashlanadi.

Jumladan, E.M. Bergman fikricha, mintaqa iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichi bir vaqtning o'zida mintaqani iqtisodiy rivojlanishi va global raqobatbardoshligi holati tavsiflashi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga to'liq o'tganligi bilan birgalikda, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha va ularni boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga uzatuvchi mamlakatlar hisoblanganligini inobatga olgan holda, ushbu mamlakatlarda mintaqalarning iqtisodiy salohiyati innovatsion rivojlanish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlarining texnik-texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan bir muncha ortda qolayotganligi, shu bilan birgalikda, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq ta'minlanmaganligi sababli ushbu mamlakatlarda mintaqa iqtisodiy salohiyati tushunchasining mohiyatini yoritish va undan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy

tadqiqotlarda shakllangan yondashuvlar taraqqiy etgan mamlakatlar olimlari tomonidan bildirilgan fikrlardan farq qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ham aynan bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallaganligini inobatga olgan holda, ushbu mamlakat olimlarining mintaqa iqtisodiy salohiyati mohiyatini tushuntirish borasidagi ilmiy qarashlarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bunda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga (MDH) a‘zo bo‘lgan mamlakatlar iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlari natijalarini o‘rganish lozim bo‘ladi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz amaliyotiga nisbatan yaqin bo‘lganligi sababli, ularni tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. N.K. Abdilbayeva fikricha, iqtisodiy salohiyat – bu mamlakat yoki mintaqadagi turli iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalarida xo‘jalik faoliyati yurituvchi katta, o‘rta va kichik shakldagi korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish xususiyatlari, ularning investitsion imkoniyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini anglatadi. Ushbu tarifda iqtisodiy salohiyat tushunchasi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, turli tarmoqlarning investitsion imkoniyatlariga e‘tiborni qaratilganligi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj vujudga kelishidan dalolat beradi. V.S. Xarina iqtisodiy salohiyat tushunchasining mohiyatini tushuntirishda xo‘jalik faoliyati yurituvchi iqtisodiy subyektlarning ixtisoslashuvi va ularning raqobat kurashidagi nisbiy ustunlik ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

Uning fikricha, mintaqa iqtisodiy salohiyati o‘rganilayotgan mintaqaning tabiiy-resurs salohiyati, mintaqadagi iqtisodiy subyektlarning investitsion, mehnat, moliyaviy va innovatsion imkoniyatlarni o‘zida aks ettiruvchi integral ko‘rsatkich hisoblanadi. Olim iqtisodiy salohiyat tushunchasining mohiyatini tushuntirishda mamlakatda amalga oshirilayotgan mintaqaviy investitsion dasturlarning samaradorligini baholashga ustuvorlik qaratgan. Bunda ma‘lum bir mintaqada amalga oshirilgan investitsion dasturdan ko‘zlangan va erishilgan natijalarni qiyosiy taqqoslash orqali iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi baholangan. M.N. Kondrateva esa iqtisodiy salohiyat tushunchasining mohiyatini tushuntirishda uni mintaqaning mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini tavsiflovchi va ushbu jarayonga ta‘sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar tizimi sifatida baholaydi. Ushbu ilmiy qarash avvalgi olimlarga nisbatan bir muncha takomillashgani va keng qamrovli ekanligi bilan farqlanadi.

Shu bilan birgalikda, olim mintaqa iqtisodiy salohiyatining tarkibiy komponentlari sifatida iqtisodiyishlab chiqarish, investitsion, innovatsion, inson kapitali, bozor infratuzilmasi, ijtimoiy soha, tabiiy resurslar, boshqaruv kabi ko'rsatkichlarni keltirib o'tadi.

Olim mintaqa iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini izohlashda mintaqaning mavjud resurs bazasidan amal qilayotgan iqtisodiy tizim sharoitida qay darajada foydalanilayotganligi bilan izohlashga harakat qiladi. Shunga o'xshash ilmiy qarash Ye.G. Muxina ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topadi. Uning fikricha, mintaqa iqtisodiy salohiyati uning resurs zaxiralari, manbalari, ta'minot zanjiri va ularni mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish holatini tavsiflovchi ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, mintaqa iqtisodiy salohiyati geo-siyosiy, tabiiy, demografik (mehnat), ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaning rivojlanish ko'rsatkichlaridan tashkil topadi, deb hisoblaydi. Ushbu ilmiy qarash iqtisodiy salohiyatning tarkibiy komponentlarini guruhlashda nisbatan keng qamrovli guruhlash amalga oshirilganligi bilan avvalgilaridan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдусаломов М.А. О целях и методологических основах региональной политики. Современные проблемы региональной экономики, материалы научно-методологического семинара. ТГЭУ. -Т.: 2015. -С. 6-11.
2. Ahmadjonov A. "Cho'llanish jarayonining O'zbekiston hududiga yoyilishi" . U – Seysmologiya instituti Kompleks regional geografik prognozashtirish laboratoriyasi.
3. Ахмедов Т.М. Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АН РУз, 2011. – С. 18-21.;
4. Egamberdiyev F.T. va boshqalar. Mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning tutgan o'rni. – Toshkent: Экономика и финансы. 2017. – 68-74 b.
5. Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутри региональном уровне. Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.
6. Эгамов Б.Н. Стратегия и приоритеты территориального развития в условиях углубления рыночных реформ (на примере Хорезмской области). Автореферат 2007 г.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

